

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA FIKR VA SO'Z
ERKINLIGINING AMALIY HOLATI TAHLILI**

Tifliyeva Gulhayo

Toshkent davlat yuridika universiteti

Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti

Ommaviy axborot vositalari huquqi yo'nalishi talabasi

tifliyevag@gmail.com

Annotatsiya: ushbu ilmiy tezisda O'zbekiston Respublikasida fikr va so'z erkinligining huquqiy asoslari yordamida uning amaliy holati chuqur tahlil ostiga olinadi. Milliy hamda xalqaro me'yoriy-huquqiy hujjatlar doirasida erkinlikning ta'minlanishi, shuningdek, xalqaro reytinglar asosida fikr va so'z erkinligi darajasi baholanadi. Amaliy ma'lumotlar va statistik ko'rsatkichlar asosida erkinlikning rivojlanish tendensiyalari o'rganiladi. Shuningdek, sohada mavjud muammolar va cheklovlar o'rganib chiqiladi.

Kalit so'zlar: fikr va so'z erkinligi, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, huquqiy islohotlar, ommaviy axborot vositalari, xalqaro standartlar, inson huquqlari.

**АНАЛИЗ ПРАКТИЧЕСКОГО СОСТОЯНИЯ СВОБОДЫ
МЫСЛИ И СЛОВА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН**

Тифлиева Гульхайо

Ташкентский государственный юридический университет

Факультет магистратуры и заочного образования

Студент факультета права СМИ

tifliyevag@gmail.com

Аннотация: в данной научной диссертации дается глубокий анализ практического положения свободы мысли и слова в Республике Узбекистан с использованием ее правовых основ. Уровень свободы мысли и слова оценивается на основе обеспечения свободы в рамках национальных и международных нормативно-правовых актов, а также международных рейтингов. Тенденции развития свободы изучаются на основе практических данных и статистических показателей. В нем также рассматриваются проблемы и ограничения в этой области.

Ключевые слова: свобода мысли и слова, Конституция Республики Узбекистан, правовые реформы, средства массовой информации, международные стандарты, права человека.

ANALYSIS OF THE PRACTICAL STATE OF FREEDOM OF THOUGHT AND SPEECH IN THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tifliyeva Gulhayo

Tashkent State University of Law

Faculty of Master's and Correspondence Studies

Student of the Department of Mass Media Law

tifliyevag@gmail.com

Abstract: this scientific thesis provides an in-depth analysis of the practical state of freedom of thought and speech in the Republic of Uzbekistan

using its legal framework. The provision of freedom within the framework of national and international regulatory legal acts, as well as the level of freedom of thought and speech based on international ratings, is assessed. The development trends of freedom are studied based on practical data and statistical indicators. The existing problems and restrictions in the field are also studied.

Keywords: *freedom of thought and expression, Constitution of the Republic of Uzbekistan, legal reforms, mass media, international standards, human rights.*

Ma'lumki, fikr va so'z erkinligi har qanday demokratik jamiyatni shakllantirishda ahamiyatli qadriyatlardan sanaladi. Aynan shu huquq yordamida fuqarolar o'z shaxsiy huquq va erkinliklarini amalga oshirishi, siyosiy va ijtimoiy hayotda faol ishtirok eta olishi qat'iy kafolatlanadi. Mavzuning ahamiyati ham ayni shu nuqtada yaqqol seziladi, ya'ni birgina fikr va so'z erkinligi kafolati bilan fuqarolar keng qamrovli huquqlarga ega bo'ladi (Ommaviy axborot vositalari faoliyatida, jamoat va siyosiy tadbirlarda, saylovlarda va referendumlarda, davlat siyosatini shakllantirish bo'yicha ochiq muhokamalarda ishtirok etish va h.k.). Bu mavzudagi asosiy muammo esa qonunchilikdagi nuqsonlarda emas, mavjud qonunlarning amaliyotda qanchalik ishlayotganida ko'rinadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ham mustaqillik e'lon qilingandan buyon bu borada muhim chora-tadbirlar ko'rib kelinmoqda. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Jamiyatimizdagi ochiqlik siyosatini izchil davom ettirish maqsadida ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi, axborot olish, foydalanish va tarqatishga bo'lgan huquqlar qat'iy kafolatlanmoqda.

Shu bilan birga, soʻz erkinligi bu — masʼuliyat ham degani. Yaʼni, axborot makonida haqqoniylik va xolislik bosh mezon ekanini ham unutmasligimiz zarur”, degan gaplaridan fikr va soʻz erkinligining Oʻzbekiston Respublikasida qanchalik ahamiyatli ekanligini anglab olish mushkul emas.

Hozirgi raqamli texnologiyalar davrida fikr va soʻz erkinligi huquqining amaliyotdagi taʼminoti va rivojlanish tendensiyalarida oʻziga xos xususiyatlar mavjud.

Dastlab, fikr va soʻz erkinligini taʼminlovchi milliy va xalqaro huquqiy asoslar bilan tanishib chiqiladi. Negaki, har ikkala asoslar mamlakatimizda ushbu huquqqa munosabat qanaqa ekanligini anglashda muhim. Milliy qonunchilikda ushbu huquqqa oid yuzaga keluvchi muammolarga yechim topilmagan oʻrinlarda xalqaro huquq normlariga tayanilishi qonunchilikda belgilab qoʻyilgan.

Milliy huquqiy asoslar:

1. 2023-yil 30-aprel kuni umumxalq referendumini orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining bir qator tegishli moddalari orqali har kim fikrlash, soʻz va eʼtiqod erkinligiga ega ekani yana ham kengroq va qatʼiyyoq mustahkamlab qoʻyildi.

2. “Ommaviy axborot vositalari toʻgʻrisida”gi Qonun (2007) OAV faoliyati erkinligini va davlat tomonidan himoya qilinishini nazarda tutadi.

3. “Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun (2002) fuqarolarning axborotga ega bo‘lish, uni izlash va tarqatish huquqlarini belgilaydi.

4. “Axborotlashtirish to‘g‘risida”gi Qonun (2004) raqamli axborot makonida so‘z va axborot erkinligini tartibga soluvchi huquqiy asosni mustahkamlaydi.

Xalqaro-huquqiy asoslar:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan 1948-yil qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasining 19-moddasida har kimning fikr va so‘z erkinligi huquqi kafolatlangan.

2. 1966-yilda qabul qilingan va O‘zbekiston tomonidan 1995-yilda ratifikatsiya qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro paktning 19-moddasi 1-bandiga ko‘ra esa har bir inson hech bir to‘siqsiz o‘z fikriga sobit bo‘lish huquqiga ega ekanligi mustahkamlab qo‘yilgan.

3. Yevropa inson huquqlari konvensiyasi (ECHR) 10-moddasida fikr va so‘z erkinligi huquqi himoya qilinadi, ammo davlat xavfsizligi, odob-axloq, shaxsning sha‘ni va obro‘cini himoya qilish kabi holatlarda ushbu huquq cheklanishi mumkin.

Yuqoridagi qonunchiliklar asosida, O‘zbekistonda fikr va so‘z erkinligining amaliy holati bo‘yicha tahlil, dastlab, ichki siyosiy islohotlar va yangiliklar bilan amalga oshiriladi:

- Bizga ma'lum bo'lganidek, 2016-yildan keyin, ya'ni Prezident Shavkat Mirziyoyev hokimiyat tepasiga kelgach O'zbekistonda so'z va axborot erkinligini kengaytirishga qaratilgan islohotlar ko'lami kengaya boshladi. Xususan, 2018-yilda Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tashkil etildi. Bu esa o'z o'rnida, davlat va jamiyat o'rtasida ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini ta'minlashda muhim rol o'ynamoqda.

- Matbuot xizmatlari faoliyatiga to'xtaladigan bo'lsak, ulardagi mustaqillik va tezkorlik sezilarli darajada kuchaytirildi.

- Yuqorida aytilganidek, 2023-yilda yangi tahrir qilingan Konstitutsiya orqali esa axborot olish va uni erkin tarqatish huquqi mustaqil ravishda mustahkamlab qo'yildi.

Statistik ma'lumotlar va xalqaro baholar: "Freedom House"ning 2025-yilgi "Freedom in the World" hisobotiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi "qisman erkin" davlatlar qatoriga yaqinlashayotganini bilish mumkin, ammo hali "erkin" maqomini olib ulgurmagan. Statistikaga chuqurroq qaraydigan bo'lsak, "global freedom" indeksi (ushbu indeks siyosiy huquqlar va fuqarolar erkinligi darajasini belgilaydi) 12/100, maqomi — erkin emas, "internet freedom" (ushbu ko'rsatkich esa internetdagi so'z erkinligi, senzura, shuningdek, raqamli huquqlar buzilishi darajasini aniqlaydi) 27/100, maqomi — erkin emas, "nations in transit" (bu raqam esa davlatdagi boshqaruvi, saylov, fuqarolik jamiyati va sud tizimidagi mustaqillik holatini belgilaydi) 3/100, maqomi — markazlashgan avtoritar rejimda.

Reporters Without Borders (RSF) tomonidan e'lon qilingan 2024-yilgi Jahon Matbuot Erkinligi Indeksida O'zbekiston 148-o'rinni egallagan va 37.27 darajani ko'rsatib turibdi. Bu, holat o'tgan yilgiga qaraganda, yanada murakkab tus olayotganini anglatadi, ya'ni 2023-yilda mamlakatimiz 45.73 ko'rsatkich bilan 137-o'rinda edi.

**Fikr va so'z erkinligi huquqi ta'mini bo'yicha amaliy holat:
muammolar va cheklovlar:**

- ba'zi tanqidiy kontentlar, ayniqsa, siyosiy va ijtimoiy mavzudagi materiallar nisbatan senzura qilinayotgan holatlar mavjud.
- ayrim hollarda bloggerlar va jurnalistlarga nisbatan noo'rin huquqbuzarlik ishlarining ochilishi fikr va so'z erkinligining amaliyotdagi cheklovlariga misol bo'lib qolmoqda.
- internetdagi ayrim xorijiy axborot manbalariga haligacha cheklovlar saqlanib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: Adolat, 2023.
<https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. O'zbekiston Respublikasi "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni, 15.01.2007. <https://lex.uz/docs/-1106870>.
3. O'zbekiston Respublikasi "Axborot erkinligi prinsiplari va kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni, 21.04.2021. <https://lex.uz/acts/-52268>.

4. O'zbekiston Respublikasi "Axborotlashtirish to'g'risida"gi Qonuni, 11.12.2003. <https://lex.uz/docs/-83472>.
5. Freedom House. Freedom in the World 2025: Uzbekistan. URL: <https://freedomhouse.org>.
6. Reporters Without Borders (RSF). World Press Freedom Index 2024. URL: <https://rsf.org>.
7. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi 1948-yil.// <https://constitution.uz>
8. Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, 1966-yil.